# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024-YIL YANVAR-APREL (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 74 228-30-42
www.andstat.uz

# Andijon viloyati
# sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2024-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 25 585,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 131,8 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-aprel**
**mlrd. so‘m**






**Yanvar-aprel**
**FHI, % da**




| | mlrd. so‘m | FHI, % da |
|---|---|---|
| Andijon sh. | 3 293,6 | 112,5 |
| Xonobod sh. | 966,7 | 105,8 |
| Oltinko‘l | 440,4 | 122,1 |
| Andijon | 328,6 | 105,8 |
| Baliqchi | 879,9 | 110,8 |
| Bo‘ston | 203,6 | 108,1 |
| Buloqboshi | 198,4 | 107,4 |
| Jalaquduq | 371,5 | 101,1 |
| Izboskan | 207,3 | 110,2 |
| Ulug‘nor | 192,7 | 106,6 |
| Qo‘rg‘ontepa | 660,5 | 106,5 |
| Asaka | 13 890,7 | 155,1 |
| Marhamat | 312,6 | 106,8 |
| Shahrixon | 578,5 | 106,1 |
| Paxtaobod | 370,4 | 110,3 |
| Xo‘jaobod | 689,8 | 103,5 |

*mlrd. so‘m* *FHI, % da*

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 39 048,6 ming so‘m, Xonobod shahrida 21 076,9 ming so‘m, Andijon shahrida 6 828,5 ming so‘m hamda Xo‘jaobod tumanida 5 735,0 ming so‘mni tashkil etmoqda.











## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, **22 924,6** mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **97,2 %** ni tashkil etdi.




2024-yilning yanvar-aprel oyida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (58,9%), Andijon shahri (14,0%), Xonobod shahri (4,1%), Baliqchi tumani (3,7%) hamda Xo‘jaobod tumani (2,9%) hissasiga tog‘ri keldi. Shuningdek, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI Asaka tumanida (155,1%), Oltinko‘l tumanida (122,1 %) hamda Andijon shahrlarida (112,5 %) kuzatildi.






# B seksiya

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **457,4** mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,9 %** ini tashkil etdi.



**Yanvar-aprel**

| | |
|---|---|
| **2023-y.** | 82,3 *mlrd. so‘m* |
| **2024-y.** | 457,4 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *% da***

| | |
|---|---|
| **2023-y.** | 104,3% |
| **2024-y.** | 152,6% |

# C seksiya

## Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **22 924,6** mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **97,2 %** ini tashkil etdi.

**Yanvar-aprel**

| | |
|---|---|
| **2023-y.** | 15 085,2 *mlrd. so‘m* |
| **2024-y.** | 22 924,6 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *% da***

| | |
|---|---|
| **2023-y.** | 103,0 % |
| **2024-y.** | 131,7 % |



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati**

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




2024-yilning yanvar-aprel oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 81,4 ming dona yengil avtomobil (2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 42,1 ga oshgan), 13,5 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (56,6 % kamaygan), 23 273,8 tonna paxtadan ip mahsulotlari (28,2 % ga oshgan) ishlab chiqarilgan.










## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil yanvar-aprel | 2023-yil yanvar-aprel | Farqi, +/- |
|---|---|---|---|
| Yengil avtomobillar (ixtsoslashtirilmagan) - dona | **81 415** | **107 890** | **-26415** |
| Paxtadan yigirilgan ip - tonna | **23 273,8** | **4 108,8** | **19 165** |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna | **13 463,1** | **14 830,6** | **-1 367,5** |
| Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna | **371,7** | **96,8** | **274,9** |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi – 70,7 % (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 151,2 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi – 18,4 % (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,5 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi – 11,7 % (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,2%), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 4,9 % (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,1 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023-yilning yanvar-aprel oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 73,0 % (2023-yilning yanvar-aprel oylarida – 61,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 1,9 % (2023-yilning yanvar-aprel oylarida – 3,9 %) va quyi texnologiyalisi – 25,0 % (2023-yilning yanvar-aprel oylarida – 34,6 %)ni tashkil etdi.



## Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati 16,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 33,8 % ni tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni va o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 39,0 % ni tashkil etgan.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 71,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 169,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 118,4 % ni tashkil etgan.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish






2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 163,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 90,4 % ni tashkil etgan.

## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 82,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 111,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni tashkil etgan.




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2024-yilning yanvar-aprel oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,5 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 2 327,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 116,2 % ni tashkil etgan.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 70,3 %, fizik hajm indeksi 52,5 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 16 117,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni fizik hajm indeksi esa 97,5 % ni tashkil etgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 53,0 % ga oshgan, ishlab chiqarish hajmi 182,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 116,1 % ni tashkil etgan.



## Elektr uskunalari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 195,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 240,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oyilarda ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 102,8 % ni tashkil etgan.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 95,7 % ga oshgan, ishlab chiqarish hajmi 240,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 81,5 % ni tashkil etgan.

## Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **D seksiya**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 126,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 42,9 mlrd. so‘mga oshganligi kuzatildi.






### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil Yanvar-aprel | 2023-yil Yanvar-aprel | Farqi, +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | **147,6** | **136,3** | **11,3** |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | **0,0** | **2,5** | **-** |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 76,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni) tashkil etdi.

*2024-yil*

*2023-yil*

**Yanvar-aprel**

***FHI, % da***

**76,7 mlrd. so'm**




**118,2 %**

**43,8 mlrd. so'm**

**108,6 %**

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil Yanvar-aprel | 2023-yil Yanvar-aprel | Farqi, +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy suv: Suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – mlrd. so'm, | **57,9** | **31,9** | **26** |
| Oqava suvlarning shlami – mlrd. so'm | **11,8** | **5,9** | **5,9** |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 57,9 mlrd. so'm yoki 181,5 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek, oqava suvlarning shlami bo'yicha xizmatlarda 11,8 mlrd. so'm hajm bajarilgan.

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-aprel oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 813,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Buloqboshi, Izboskan tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi 100 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Iaboskan tumanida 97,0 %, Buloqboshi tumanida 88,4 %, Ulug‘nor tumanida 86,3 %, Baliqchi tumanida 84,3 % ni tashkil etgani holda, eng past ulushli hududlar, Asaka tumani 1,5 %, Xonobod shahri 12,5 %, Andijon shahri 25,7 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



*2024- yil 1-aprel holatiga*

## Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 10 896 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ulardan 5 143 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 393 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 27,1 %) Andijon shahriga, 572 tasi (11,1 %) Andijon tumaniga, 464 tasi (9,0 %) Asaka tumaniga, 377 tasi (7,3%) Shahrixon tumaniga, 343 tasi (6,7 %) Xo‘jaobod tumaniga to‘gri kelmoqda.




**2023-yil** — 240 dona

**Yangi tashkil etilgan korxonalar**

**2024-yil** — 236 dona



**Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar**

**2023-yil** — 10 841 dona

**2024-yil** — 10 896 dona